

## O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA SOHADAGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI

*Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich*

*Farg‘ona davlat universiteti “Turizm va menejment” kafedra mudiri*

*xiyoyabdulla@mail.ru*

**Annotatsiya** – Mazkur maqolada O‘zbekistonda qurilish sohasining hozirgi holati, 2014–2024-yillar davomida sohada yuz bergan tarkibiy o‘zgarishlar hamda qurilish ishlari hajmining hududlar kesimidagi dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, qurilish sohasi bilan bog‘liq xizmatlar, transport-logistika tizimlari va yondosh tarmoqlarning rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Tadqiqotda qurilish korxonalarida logistika xarajatlari, boshqaruv xarajatlari va ishlab chiqarish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida multiplikativ samaradorlik baholangan. “Vodiy bunyodkor kelajak servis” MChJ, “Vodiy kapital qurilish” MChJ va “Nurafshon” xususiy korxonasi misolida logistika tizimining korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta‘siri aniqlangan. Tahlil natijalari qurilish sohasida logistika tizimlarini raqamlashtirish, transport-ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish va xarajatlarni samarali boshqarish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** qurilish sohasi, qurilish ishlari, logistika tizimi, logistik xarajatlar, multiplikativ samaradorlik, boshqaruv samaradorligi, transport-logistika xizmatlari, xizmatlar sohasi, iqtisodiy o‘rnatish, raqamli boshqaruv, ta‘minot zanjiri, SWOT tahlil, investitsiya, hududiy rivojlanish.

### KIRISH

Bugungi kunda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma obyektlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi qurilish sohasining barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida qurilish ishlari hajmi sezilarli darajada oshib, ushbu tarmoq iqtisodiy o‘rnatishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi.

Qurilish sohasining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan logistika tizimlarining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq. Qurilish materiallarini xarid qilish, saqlash, tashish va obyektlarga o‘z vaqtida yetkazib berish jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli qurilish korxonalarida logistika tizimlarini takomillashtirish, transport-ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish hamda xarajatlarni samarali boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, logistika tizimlarining samarali tashkil etilishi qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va qo‘shimcha iqtisodiy samara yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda “Just-in-Time” kabi zamonaviy logistika yondashuvlarini joriy etish qurilish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda qurilish sohasining rivojlanish tendensiyalari, hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining dinamikasi hamda qurilish korxonalarida logistika tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri tahlil qilingan. Shuningdek, qurilish logistikasi faoliyatining multiplikativ samarasi baholanib, logistika tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sohasida logistika tizimlarini boshqarish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Logistika nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida Bowersox, Closs, Ballou, Christopher kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida ta‘minot zanjirlarini boshqarish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalari asoslab berilgan.

M. Christopher logistika va ta‘minot zanjiri boshqaruvini korxonaning raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholab, material, axborot va moliyaviy oqimlarning integratsiyalashgan boshqaruvi korxonada samaradorligini oshirishini ta‘kidlaydi. D. Ballou esa logistika tizimlarini boshqarishda transport, ombor xo‘jaligi va zaxiralarni boshqarish xarajatlarini minimallashtirish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Qurilish logistikasining o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda qurilish obyektlarining hududiy tarqoqligi, materiallar oqimining murakkabligi va loyiha muddatlarining qat‘iyligi logistika tizimlarini samarali boshqarish zaruratini yuzaga keltirishi qayd etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan BIM (Building Information Modeling), ERP (Enterprise Resource Planning) va SCM (Supply Chain Management) tizimlarini qurilish logistikasi jarayonlariga integratsiya qilish samaradorlikni sezilarli oshirishi isbotlangan.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham qurilish tarmog‘ini rivojlantirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish va logistika tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mamlakatimizda qurilish sohasini modernizatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda sohaning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni hamda hududiy rivojlanishga ta‘siri keng yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda qurilish korxonalarida logistika tizimlarining multiplikativ samaradorligini baholash, logistika xarajatlari va boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks tahlil qilish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, logistika tizimlarining ishlab chiqarish hajmi, vaqt tejalishi, saqlash xarajatlari va moliyaviy natijalarga ta‘sirini yagona integral ko‘rsatkich asosida baholashga oid metodik yondashuvlar cheklangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasining rivojlanish tendensiyalari, logistika tizimlarining iqtisodiy samaradorligi hamda qurilish korxonalari faoliyatida yuzaga keladigan multiplikativ samaralarni baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, qurilish korxonalarining moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, shuningdek, Farg‘ona vodiysida faoliyat yuritayotgan “Vodiy bunyodkor kelajak servis” MChJ, “Vodiy kapital qurilish” MChJ va “Nurafshon” xususiy korxonalarining amaliy faoliyati bo‘yicha ma‘lumotlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi. Qurilish ishlari hajmi, xizmatlar sohasi va transport xizmatlari rivojlanishining yillar hamda hududlar kesimidagi o‘zgarishlari dinamik qatorlar va zanjirli bog‘lanish usullari asosida o‘rganildi. Hududlar bo‘yicha qurilish faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlashda qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Global o‘zgarishlar natijasida respublikamizda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi yildan-yilga oshish tendensiyasini namoyon etmoqda. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi o‘zgarishlarni ifodalovchi dinamik qatorlar tahlili shundan dalolat beradiki, pandemiyagacha va 2021-yildan boshlab mamlakat iqtisodiyotida makro darajada o‘zgarishlar boshlangan hamda xizmatlar sohasining hajmi milliy iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan barqaror o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lib kelmoqda. Qurilish sohasining umumiy hajmi milliy tasnifda xizmatlar tarkibiga kiritilmasa-da, uning ko‘plab faoliyat turlari aynan xizmat ko‘rsatish tizimlari bilan bog‘liq ekanligi sababli, sohadagi dinamika makroiqtisodiy asosiy ko‘rsatkich sifatida xizmatlar sohasi va qurilishga aloqador ko‘rsatkichlar tahlili orqali o‘rganildi. Shu bilan birga, sohada band bo‘lganlar soni ortib, mehnat jarayonlarining texnik ta‘minoti yaxshilanmoqda hamda zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan bir paytda xizmatlar sohasida ham muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. So‘nggi o‘n yillikda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror ravishda oshib, yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyon qilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o‘sdı, shundan xizmatlar sohasiga 657,3 trln. so‘m to‘g‘ri keladi, yoki uning YaIMdagi ulushi 45,1%ni tashkil etadi.<sup>21</sup> Milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy muhitga integratsiyalashuvi darajasidan kelib chiqib, xizmatlar importi va eksportining rivojlanishi yangi texnologik yechimlarning paydo bo‘lishini talab etadi. Shu bilan birga, umumiy xizmatlar tarkibida bozor xizmatlari asosiy ulushni (60% dan ko‘proq) tashkil etadi. Milliy va xalqaro ma‘lumotlarga asosan, O‘zbekistonga jalb qilinayotgan chet el sarmoyalarining 40%dan ortig‘i xizmatlar sohasini rivojlantirish va innovatsiya jarayonlarini takomillashtirishga sarflanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ushbu sohasining strategik ahamiyati va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Jahonning rivojlangan davlatlarida xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning 60-70%ini tashkil etadi. Bu sohaning rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy salohiyati va umumiy taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasida ham ishlab chiqarishdagi kabi innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj oshib boradi. Iqtisodiyotning real sektori ishlab chiqarish ko'lamining o'sishi va murakkab texnologiyalarga asoslangan mahsulotlarning ishlab chiqilishi xizmatlar sohasining faoliyatini kengaytirib, uning xilma-xilligini hamda texnologik transformatsiyasini tezlashtiradi. Shu tariqa, ushbu jarayon xizmatlar sohasi innovatsion taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida xizmatlar sohasining kengayishi xizmatlarning ommabopligi, sifatining yaxshilanishi mahsulot talabning oshishiga olib keladi. Natijada, ishlab chiqarish miqyosi kengayadi va iqtisodiyotning umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori sur'atlarda o'sishni boshlaydi. Demak, xizmatlar sohasining innovatsion rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot jarayonidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi o'z salohiyati va rivojlanishi nuqtai nazaridan o'tgan yillarda sezilarli darajada taraqqiyotga erishgan.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasining 2014-2024-yillardagi ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi<sup>22</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar												2024-yilda 2014 - yildagiga nisbatan, marta
	2024-yilda 2014-yildagiga nisbatan, marta												
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024		
<b>Yalpi ichki mahsulot</b>	<b>186,8</b>	<b>221,3</b>	<b>255,4</b>	<b>356,4</b>	<b>473,6</b>	<b>594,6</b>	<b>668</b>	<b>820,6</b>	<b>888,3</b>	<b>1204,4</b>	<b>1454,5</b>	<b>7,8</b>	
<i>YaIMning o'sish sur'ati, %</i>	<i>106,9</i>	<i>107,2</i>	<i>105,9</i>	<i>104,4</i>	<i>105,6</i>	<i>106,8</i>	<i>101,6</i>	<i>108</i>	<i>106</i>	<i>106,3</i>	<i>106,5</i>	<i>0,9</i>	
<b>Xizmatlar jami</b>	<b>55,9</b>	<b>68,0</b>	<b>78,5</b>	<b>97,1</b>	<b>118,8</b>	<b>150,9</b>	<b>259,2</b>	<b>320,9</b>	<b>413,6</b>	<b>529,4</b>	<b>657,3</b>	<b>11,7</b>	
<i>Xizmatlar hajmining YaIMdagi ulushi, %</i>	<i>29,9</i>	<i>30,7</i>	<i>30,7</i>	<i>27,2</i>	<i>25</i>	<i>25,3</i>	<i>38,8</i>	<i>39</i>	<i>46,5</i>	<i>43,9</i>	<i>45,1</i>	<i>1,5</i>	
<i>Xizmatlar hajmining o'sish sur'ati, %</i>	<i>104,2</i>	<i>103,4</i>	<i>110,7</i>	<i>106</i>	<i>105,5</i>	<i>107,7</i>	<i>99,2</i>	<i>110,9</i>	<i>109,1</i>	<i>107,1</i>	<i>107,7</i>	<i>1,03</i>	
<b>Qurilish ishlari</b>	<b>20,1</b>	<b>25,4</b>	<b>29,4</b>	<b>34,7</b>	<b>51,1</b>	<b>71,2</b>	<b>88,1</b>	<b>107,4</b>	<b>103,7</b>	<b>150,7</b>	<b>176,8</b>	<b>8,7</b>	
<i>Qurilish ishlarining YaIMdagi ulushi, %</i>	<i>10,7</i>	<i>11,4</i>	<i>11,5</i>	<i>9</i>	<i>10,7</i>	<i>11,9</i>	<i>13,1</i>	<i>13</i>	<i>11,6</i>	<i>12,5</i>	<i>12,1</i>	<i>1,1</i>	
<i>Qurilish ishlarining o'sish sur'ati, %</i>	<i>117,6</i>	<i>118,8</i>	<i>107,2</i>	<i>106,0</i>	<i>114,3</i>	<i>122,9</i>	<i>109,5</i>	<i>106,8</i>	<i>106,6</i>	<i>107</i>	<i>108,8</i>	<i>0,9</i>	

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining vaqtli qatordagi ayrim davrlar kesimidagi dinamikasini to'g'ri baholash uchun statistik tahlilning zanjirli bog'lanish usuli samarali vosita hisoblanadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 2014-2015-yillarda barqaror, ya'ni 7,0% atrofidagi sur'atga egaligini ko'rsatsa, 2016-2019-yillarda bu ko'rsatkich 4,4-5,9 % atrofidagi o'sish darajasida bo'lgan va pandemiyadan keyin jadal tarzda o'sishni boshlagan. Mamlakatimizda yaratilgan barcha xizmatlar hajmi 2014-yilda 55,9 trln. so'm, 2024-yilda 657,3 trln. so'mdan iborat bo'lib, ko'rilayotgan davrda 11,7 martaga o'sgan. Xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'rilayotgan 11 yillik davomida 25-45,0 % atrofida bo'lgan. Xizmatlar hajmi o'sish sur'atining vaqtli qator bo'yicha ayrim davrlardagi o'zgarishlarini aniqroq tahlil qilish uchun statistik tahlilning zanjirli bog'lanish usulidan foydalanish imkoniyat yaratadi.

**2-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'mda)<sup>23</sup>**

Hududlar	Yillar											2024-yilda 2014-yilga nisbatan o'sish
	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>20060,4</b>	<b>25423,1</b>	<b>29413,9</b>	<b>34698,0</b>	<b>51129,3</b>	<b>71156,5</b>	<b>88130,3</b>	<b>107492,7</b>	<b>130790,9</b>	<b>150792,6</b>	<b>233832,9</b>	11,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1053,5	1219,3	1171,8	1398,8	2182,7	3315,4	3992,5	4480,6	5272,4	5315,9	8553,2	8,1
<i>Viloyatlar</i>												
Andijon	1131,8	1341,9	1578,0	1782,9	2819,5	3539,1	4673,0	5657,8	6864,1	7384,3	12152,1	10,7
Buxoro	1648,4	2061,7	2202,9	2543,7	3581,2	4368,1	5659,8	7401,1	8448,7	9468,8	16514,5	10,0
Jizzax	659,5	759,2	906,1	996,1	1564,3	2510,6	2715,0	3085,4	3446,4	3947,7	6279,4	9,5
Qashqadaryo	1560,0	2067,5	2560,0	2759,1	3701,1	4365,3	4832,6	6336,6	7793,8	9490,9	15099,9	9,7
Navoiy	891,7	1019,2	1153,1	1313,6	2280,8	3464,0	3944,7	5155,5	5855,0	6744,1	11944	13,4
Namangan	890,4	1010,4	1289,9	1475,2	2257,6	3471,0	4678,2	5556,7	6653,2	7342,2	12755,5	14,3
Samarqand	1562,8	2010,6	2194,9	2342,4	3299,0	4527,2	5755,3	7385,7	8895,4	10177,6	14017,1	9,0
Surxondaryo	1051,5	1351,3	1554,8	1827,0	2879,7	3979,7	4774,7	5868,4	6521,9	7596,5	12058,6	11,5
Sirdaryo	376,5	478,9	540,7	552,4	1001,1	1926,2	2407,6	2708,8	3260,1	3676,7	5043	13,4
Toshkent	1330,9	1562,0	1646,3	1825,4	3006,7	5594,1	7102,6	9401,2	12237,4	14339,0	24143,9	18,1
Farg'ona	1396,2	1649,0	1840,0	1969,5	2942,7	4162,8	5473,9	6993,7	8646,0	9917,1	15794,6	11,3
Xorazm	961,4	1174,7	1220,9	1375,8	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5	4878,4	5766,6	10657,2	11,1
Toshkent sh.	3460,1	4113,0	4633,4	6197,9	10870,7	16256,9	19215,4	26535,4	32946,3	37245,5	57643,4	16,7

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2024 yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasi dinamik rivojlanish tendensiyasini namoyon etdi. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qurilish ishlarining taqsimoti turlicha sur'atlarda o'sish ko'rsatkichlarini qayd etdi.

Umumiy hajmning eng katta qismini binolar va inshootlar qurilishi tashkil etdi. Ularning ulushi 71,7 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % darajada o'sdi. Bu ko'rsatkich turar-joy majmualari, ishlab chiqarish inshootlari va boshqa muhim obyektlar qurilishiga bo'lgan talab barqarorligini aks ettiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,3 % ulush bilan ikkinchi o'rinni egalladi hamda 124,7 % o'sish sur'ati bilan eng yuqori rivojlanish ko'rsatkichini qayd etdi. Ushbu natija urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy infratuzilma (ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish sohalari)ga bo'lgan talab ortgani bilan izohlanadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa umumiy hajmning 9,0 % qismini tashkil etib, 106,4 % o'sishni ta'minladi. Mazkur segmentning barqaror rivojlanishi muhandislik kommunikatsiyalari, maxsus texnologik jarayonlar va texnik jihatdan murakkab konstruksiyalarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining hajmi tahlili hududlarda qurilish ishlarining rivojlanish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda tahlil qilinayotgan 2014-2024-yillar oralig'ida qurilish ishlarining bajarilish hajmi Namangan (14,3 marta), Toshkent (18,1 marta) viloyatlari, Toshkent shahri (16,7 marta) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,1 marta) da yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Qashqararyo (9,7 marta), Samarqand (9,0 marta), Jizzax (9,5 marta) va Buxoro (10,0 marta) viloyatlarida esa ko'rilyotgan vaqt oralig'idagi qurilish ishlarining hajmi qolgan hududlarga nisbatan pastroq darajada ortgan.

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2014-2024-yillarda qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati (% da)<sup>24</sup>

Hududlar	Yillar										
	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>117,6</b>	<b>118,8</b>	<b>107,2</b>	<b>106,0</b>	<b>114,3</b>	<b>122,9</b>	<b>109,5</b>	<b>106,8</b>	<b>106,6</b>	<b>107</b>	<b>108,8</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	119,3	105,3	89,4	112,3	125,8	128,0	107,0	103,8	107,3	94,7	107,4
<i>Viloyatlar</i>											
Andijon	118,3	107,1	106,4	103,1	121,8	99,3	109,5	108,7	109,2	102,4	111,0
Buxoro	104,7	116,2	98,2	106,4	119,8	114,9	117	111,8	101,5	103,7	114,9
Jizzax	111,2	105,6	109,7	99	129	146,9	101,5	116,2	107	108	107,8
Qashqadaryo	116,7	124,9	114,4	99,9	110,9	103,2	98,3	117,6	105,3	109,8	112,1
Navoiy	112,4	102,2	100,3	105,4	147,5	125,6	94,6	116,8	105,5	107,9	113,9
Namangan	106,2	102,6	108,6	102,4	123	140,8	118,3	109,1	108,5	105,3	112,8
Samarqand	108,7	119,5	100,2	95,3	119,6	126,2	111,7	117,8	111,8	110,1	111,7
Surxandaryo	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	109	112,9	101,6	110,5	108,8
Sirdaryo	108,5	117,1	100,2	99,8	149	158,2	110,2	109,9	99,7	101,6	100,3

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Toshkent	104	109,4	100,2	100,3	131,1	155,8	107,8	115,3	108,6	106,3	110,1
Farg‘ona	109,1	109	102,8	95,4	120,4	118,8	115,3	115,3	113,8	107,9	108,5
Xorazm	103,2	116	101,8	108,2	114	119,3	97,4	130,9	101,8	107,1	111,4
Toshkent sh.	115,9	107,3	102,8	120,5	136,5	135,5	106,6	118,3	104,4	103,9	109,9

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari tizimida qurilish sohasi logistika tizimlari faoliyati (qurilish materiallarini yetkazib berish, saqlash, tashish va boshqalar) bo‘yicha statistik ma’lumotlar mavjud emasligini hisobga olgan holda qurilish logistikasi tizimi faoliyatini alohida olingan korxonalar tomonidan foydalanilgan logistik xizmatlar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganish asosida tahlil amalga oshirildi. Respublika miqyosida bajarilgan qurilish ishlari hajmining avvalgi davrga nisbatan o‘shish (pasayish) sur‘ati 2014-2024-yillar davomida ma’lum bir tebranishlar bilan yuz bergan.

2014-2024-yillar davomida respublika miqyosidagi qurilish ishlari hajmining o‘shish (yoki pasayish) sur‘ati tebranib, turli davrlar bo‘yicha o‘zgarib turdi. Xususan, 2014-2015-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich barqaror o‘shish sur‘atini ko‘rsatgan, 2016-2017-yillarda esa sur‘at keskin kamaygan. 2018-2019-yillarda yana o‘shish kuzatilib, 2020-yilda pandemiya ta‘sirida 10,0 % dan ko‘proq pasayish ro‘y bergan.

Mamlakat miqyosidagi qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati hududlar bo‘yicha vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turdi. Biroq, ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarishi tahlil qilinsa, pandemiya davrida ham Namangan (118,3 %), Buxoro (117,0 %) va Andijon (109,5 %) viloyatlarida yuqori o‘shish sur‘atlari saqlanib qolganligi ko‘rinadi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri ekanligini tasdiqladi. 2014–2024-yillar davomida qurilish ishlari hajmining 8,7 martaga oshgani, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining barqaror o‘shib borayotgani hamda hududlar kesimida yuqori sur‘atlar bilan rivojlanayotgani sohaning iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tahlillar qurilish sohasi rivojlanishining transport, logistika va xizmatlar sektori bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon etdi. Qurilish materiallarini yetkazib berish, saqlash va taqsimlash jarayonlarining samarali tashkil etilishi korxonalar faoliyatining iqtisodiy natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shu sababli logistika tizimlarini takomillashtirish qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ekspert baholash va so‘rovnomalar natijalari qurilish logistikasi tizimlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, “Just-in-Time” metodologiyasidan foydalanish, ta‘minot zanjirlarini integratsiyalashgan holda boshqarish hamda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlar ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, raqamli boshqaruv tizimlarining to‘liq shakllanmaganligi va logistika xizmatlari sifatining xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmasligi asosiy muammolar sifatida qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, qurilish korxonalarida logistika tizimlarini raqamlashtirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ichki logistika

bo‘linmalari va tashqi outsorsing mexanizmlarini optimal uyg‘unlashtirish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur chora-tadbirlar qurilish korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Абдуллаев А. Қурилиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш стратегияси (Тошкент вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2019. – 27 бет.
2. Мирсодиқов А.Т. Қурилиш соҳаси логистик занжирларида харажатларни бошқариш жараёнларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: ТДИУ, 2022. – 168 б.
3. Четверов В. С. Методы финансового планирования // Молодой ученый. — 2019. - №3. - с. 537- 539.
4. Эпштейн А.Д. Классификация инноваций в ЖКХ. Особенности инноваций в коммунальном и в жилищном хозяйстве //Экономические науки, 2007. – №2(27). – с. 87-91.
5. <http://www.stat.uz>
6. <http://invest.gov.uz>
7. Fundamentals of Corporate Finance, Tenth Edition by Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, and Alan J. Marcus. Copyright © 2020 by McGraw-Hill Education.
8. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. – 16th ed. – Boston: Cengage Learning, 2021. – 1184 p.
9. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2022. – 912 p.
10. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. – 15th ed. – Harlow: Pearson Education, 2019. – 720 p.
11. Gitman L.J., Zutter C.J. Principles of Managerial Finance. – 15th ed. – Boston: Pearson, 2018. – 720 p.